



O'ZBEK TILIDA RANG RAMZLARINING LINGVOMADANIY JIHATI

Latofat Ziyatova

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida rang ramzlarining lingvomadaniy jihatlari badiiy asarlardan olingan parchalar asosida tahlil qilingan. Afrika qit'asida yashovchi xalqlarning ramz va marosimlarini tadqiq etgan ingliz etnografi Viktor Terner rang-ramzlar ilg'ab ohnish jihatidan ancha qadimiy ekanligini ko'rsatib bergan. Uning aniqlashicha, qadimgi inson uch: dastlab oq, qora, qizil ranglar bdan bog'liq ramzlarni kashf etgan bo'lsa, keyinchalik u asta-sekin bu uchlikka yashil, ko'k, sariq va boshqa ranglar bdan aloqador ramzlarni kiritgan. Rang ramzlar har millat vakillarida o'ziga xos madaniy belgisini ifodalaganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, ramz, rang, mif, mifologik tasavvur, barqaror shakl, madaniyatlar assotsiatsiyalari.

Rang ramzlar asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiy mif, turli e'tiqodiy dunyoqarashlariga borib bog'lanadi. Barcha turdagi ranglarning tub ildizi xalqning u yoki bu mifologik tasavvur, e'tiqodiy qarashlariga bog'liqdir. Ular barqaror shakl va tub mazmunga ega. Ramz sifatida keluvchi barcha ranglarning barqaror shaklga egaligini folklorning barcha janrlari misolida ko'rsatish mumkin [1].

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida rang ramzlari va rangshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, I.V.Gyote, [8] L.N.Miranova [11], V.Terner [14], V.V.Nemikin[13] va Y.N.Devitskayalarning tadqiqotlarida[10] ranglarga taalluqli ramziylik belgilari yaxlit holda maxsus tadqiq etilgan. O'zbek olimlaridan M.Alaviya [1], M.Yoqubbekova [7], X.Egamov[2], D.O'rayeva[8], Sh.Turdimov[15], K.Mustayev[12]lar o'z tadqiqotlarida rang ramzlarini maxsus o'rgangan. Tadqiqotlarda ramz



atamasining tarixiga murojat qilinganda, qadimgi yunonlar *symbol*, ya'ni ayrim odamlarning o'zaro bir-birlarini tanib olish uchun zarur bo'lgan shartli harakatlari, belgi va ishoralari, muayyan predmetlarni qo'llashlari ma'nosini anglatuvchi so'zdan foydalanganliklari ayon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, qadimgi ajdodlarimiz ikki xil asosdagi ramzlarga ko'proq murojaat etganliklarini anglab yetamiz. Birinchisi - narsa ramz, ikkinchisi - rang ramz. Ushbu ramzlarning qaysi biri qadimiy degan savol tug'ilishi tabiiy. Mantiqan yondashilsa, narsa ramz qadimiyroqqa o'xshaydi. Ammo jiddiyroq yondashilsa, ibtidoiy inson ham u yoki bu ramz asosidan narsaning mohiyatini tola tushunib olgan paytda eng awalo uning rangini ilg'ab olgan. Turli rangdagi narsalardan foyda va zarar ko'rishiga qarab, ular bir rangni yaxshilik timsoli sifatida qabul qilsalar, boshqa bir rangni esa yovuzlik ramzi sifatida qabul qilganlar.

Y.D.Apresyan kompyuterga ekperimental o'rnatilgan rang ekranlar vositasida madaniyatlar assotsiatsiyalaridagi farqlarni va turli ranglarga ko'rsatilgan reaksiyalarni quyidagicha ko'rsatgan: qizil rang - AQShda xavf-xatarni, Fransiyada zodagonlikni, Misrda o'limni, Hindistonda hayot va ijodni, Yaponiyada g'azab va xavf-xatarni, Xitoyda baxt-saodatni; oq rang - AQShda poklikni. Fransiyada betaraflik, xolislikni, Misrda xursandchilik, quvonchni, Hindistonda o'lim va poklikni, Yaponiyada o'limni, Xitoyda o'lim va poklikni assotsiatsiyalaydi [3].

Afrika qit'asida yashovchi xalqlarning ramz va marosimlarini tadqiq etgan ingliz etnografi Viktor Terner rang-ramzlar ilg'ab ohnish jihatidan ancha qadimiy ekanligini ko'rsatib bergan. Uning aniqlashicha, qadimgi inson uch: dastlab oq, qora, qizil ranglar bdan bog'liq ramzlarni kashf etgan bo'lsa, keyinchalik u asta-sekin bu uchlikka yashil, ko'k, sariq va boshqa ranglar bdan aloqador ramzlarni kiritgan. Rang ramzlar har millat vakillarida o'ziga xos madaniy belgisini ifodalaydi. Quyidagi rang ramzlari orqali lingvomadiy jihatlarni ko'rish mumkin:

Qora rang - turli lingvomadaniyatlarda yovuzlik, olim, tun, g'am-g'ussa, qayg'uni ifodalaydi. Qora osmon, qora yer, g'or, chuqur, qabr qorong'ulik saltanati, marhumlar



diyori bo‘lib, u yerda qandaydir xavf-xatar, tahdid yashiringandek talqin qilinadi. Rus xalqi tilida “черный” (qora) so‘zi eski, qari, iflos, yorug‘likdan mahrum qandaydir narsani anglatadi: *черная старуха, чернавка, черный ход, черный пол, черновик.*

Afrika xalqlarida yovuzlik, yomon narsalar, baxtsizlik, falokat, kasallik, jodugarlik, o‘lim, tun kabi ma’nolarni ifodalaydi. Xitoy folklorida qora rangning ramziy ma’nosi jiddiylik va adolatni tamsil etadi. Masalan, xitoy tilida “qora yuz” iborasi “jiddiylik” ni anglatadi. Qora rang qorong‘ulik, zimiston va yovuzlik ma’nolarini ham bildiradi. Jahldor odamga nisbatan “qora qalb” iborasi ishlatiladi. Shuningdek, Xitoyda qora rang maxfiylik (“qora sahna” - orqadan ish qilish), qonun buzish, qonunga zid ish qilish (“qora yo‘l” - o‘g‘rilar: “qora bozor” - noqonuniy yo‘l bilan! “qora pul” - pora va h.k.) singari ramziy ma’nolarda qo‘llanadi.

Sharq va O‘rta Osiyo madaniyatida ba‘zan qora rang ulug‘vorlik, buyuklik ramzi sifatida talqin qilingan. “Akademik shoh G‘afur G‘ulom Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini to‘liq sharh bilan nashrga tayyorlashda Xoqon farzandli bo‘lgan kuni mamlakatidagi hamma devorlarni qora rang ipak matolar bilan bezash buyrug‘ini berganini aytadi. Tabiiyki, nima uchun podsho farzand ko‘rgan kuni butun yurtini qora harir libosda ko‘rishni xohlagan, degan savol tug‘dadi. Gap shundaki, Navoiy yashagan paytda qora rang buyuklik, ulug‘lik ramzi hisoblangan. Bu tushuncha hozir ham ayrim viloyatlarda saqlangan. O‘zbeklarda *Qoravoy, Qorajon, Qora botir, Qoraxon* degan ismlarning qo‘yilishi ham bu fikrni dalillaydi [6].

Hozirgi kunda o‘zbek lingvomadaniyatida qora rangning asosan yovuzlik, yomonlik, ayriliq, motam ma’nolariga ishora qiluvchi rang sifatida ishlatiladi. *Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘shninikida aza ochiladi, hali bu qo‘shninikida. (O‘tkir Hoshimov “Urushning so‘nggi qurboni”). Изидан ўғил қолдириб, отаси учун мотам туттирмаган эркак, эркак бўптимми! Орқасидан қиз қолдириб, энаси учун қора кийдириб, аза очдирма-ган аёл, аёл бўптимми! Дунёга келдим деб юрмасинлар. Ҳазрати Хизр боважоним! Кўнга берган*



тирноқни биздан-да дариғ тутманг! Менга раҳмингиз келмасада, энасига раҳмингиз келсин, Ҳазрати Хизр боважоним!...(Tog'ay Murod "Oydinda yurgan odamlar").

Oq rang deyarli barcha xalqlar lafzida poklik, soflik, ezgulik, yorug'lik, rostgo'ylik kabi ramziy ma'nolarni bildiradi. O'zbek madaniyatida oq rang pokizalik, musaffolik, ezgulik ramzi sanaladi. Masalan, oqlik, oq o'rar, ona sutidek oq, oq ot yoki kelinlarning oq libos kiyishlari. Oq tusga moyil, tiniq yuz, badan tusini bildirish uchun ham oq rangi qo'llanadi: oq badan, oq tanli, oq yuzli. Qo'lini sovuq suvga urmaydigan, faqat o'ziga oro beradigan ayollarga nisbatan "oq bilak" iborasi qo'llanadi. Umuman, o'zbek tilida oq rang bilan bog'liq ibora va maqollardan keng foydalandadi: "oq ko'ngil", "oq qilmoq", "oq yuvib, oq taramoq", "oq padar", "oq-qorani tanigan", "ko'zining oq-u qorasi", "manglayi oq bo'lsin", "oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq", "kosasi oqarmagan" "oq-qorani tanimoq" va h.k. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi oq rang - tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat o'z yo'lida baland dovonlardan oshib o'tishi kerak. Bayroqdagi oq rang O'zbekiston Respublikasi tanlagan yolning musaffo va charog'on bolishi uchun yaxshi niyat ramzidir. Uzoq Sharq mamlakatlari madaniyatida oq rang - motamni bildiradi. Agar motamda qora kiyim kiyilsa, marhumning ruhi hech narsa ko'rmaydi, deb ishonilgan. Shuning uchun ham motamda oq rang bu dunyodan keyingi hayot, ko'rish ramzi hisoblanadi. Xitoyda dafn marosimida marhumning yaqin qarindoshlari va do'stlari yelkalariga oq rangli motam bog'ichini tashlashadi, ko'kragiga oq gul taqishadi va bu bilan marhumga bo'lgan hurmatlarini bildirishadi. O'zbekistonning Xorazm viloyatida ham motamda oq kiyim kiyish udumi mavjud. Quyidagi misolda esa oq rangning umid, yaxshi kunga intiqlik ma'nolari berilgan: *Akang tirik! — dedi loli to'satdan. Kaftining orqasi bilan bir turtgan edi, to'dalanib turgan toshlar har yoqqa sochilib ketdi. **Oppoq** bir tosh dumalab oyimning oyog'i oldiga keldi.*

- *Akang keladu! — dedi oyimning ko'ziga tik qarab. – Yo'lga chiqq-o-on! (O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari")*



Qizil rang - qadimdan insoniyat hayotida muhim rol o'ynab kelgan. O'zbek tilida qizil rangining quyidagi ma'nolari mavjud: 1) "xursandchdik" ma'nosi: Boshingga sanchilgan qizil gul bo'lsin, // Menday oyim jilovingga qul bo'lsin; 2) "go'zallik" ma'nosi: Kuymasin hech kimning kulba xonasi, // o'rtanmasin qizil gulday tanasi 3) "yor, oshuqa" ma'nosi: Bog'bon bo'lmay, qizil gulni terasan, // Lolazor, bahrli yerda yurasan, 4) "mavjudlik", "tiriklik" ma'nosi: Qizil yuzim g'ariblikda sarg'ayib, // o'ligim bo'lmasin mening besohib - Ochilganda qizil g'uncha so'lmasin, // Dunyoda mard kishi hech biri o'lmasin, 5) "mutlaqo", "o'taketgan", "g'irt" ma'nosi: Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi. Qayd etilganlar bilan birga, qizil rang "yoshlik", "navqironlik" ma'nolarini ham ifodalaydi: Bekning oti po'lat suvliq chaynadi, // qizil kiyib gidday bo'lib jaynadi. Aytilganlar bilan birga qizil rang turli madaniyatlarda qondan oqadigan hayot, tiriklik timsoli bo'lib ham keladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi qizil yo'llar - bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzidir. Qizil rang ba'zan tahdid, urush, kuch-qudrat, jasorat, haqiqat ramzini ifodalaydi. Quyidagi misollarda ham qizil rangining turli ma'nolarini ko'rish mumkin: *Xonzoda begim o'ngga qayrilib, eshik tepasidagi qip-qizil naqshlarni ko'rsatdi. — Islimi gulxan mana bu. Siz naqshi lolani bunga o'xshatmishsiz, amirzodam. Xonzoda begim ko'rsatgan naqshlar haqiqatan qip-qizil olov tillarini eslatar, uning eshik tepasiga naqshlanishi ham bejiz emas edi. «Keluvchiga ergashgan balo-qazoni olov olib qoladi», degan qadimiy e'tiqod va kelin-kuyovni eshik oldiga yoqilgan olovdan aylantirib olib o'tish odatlari Boburning esiga tushdi. U opasiga tan bergan kabi qarab: — Siz haqsiz, men sahvlari qilibmen, — dedi. Shunda Qutlug' Nigor xonim gap qo'shdi: — Bobur mirzoning sahvlari uzrlilik. Chunki bu hujrada naqshi lola ham xuddi gulxandek yonib ko'rinur! (Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar"). U o'z xonasiga kirib qog'oz va daftarlari saqlanadigan sandiq tagidan Oyisha begim bir vaqtlar ipak bilan tikkan xaltachani qidirib topdi. Yillar davomida xaltachaning oq matosi sarg'ayib, xiralashgan, ammo qizil ipak bilan tikilgan «Najotkorimizga» degan kashtasimon yozuv asliday turgan edi. Bobur gavharlarni xaltachaga solib, Oyisha begimning oldiga bordi. (Pirimqul Qodirov*



“Yulduzli tunlar”). Suratda Shayboniyxonning ko‘pni ko‘rgan tajribali odam ekanligi ko‘zga aniq tashlanib turardi. Bo‘yoqlar Behzodga xos ulug‘ bir mahorat bilan xillangan edi. Oddiy odam rasmdan hech bir kamchilik topolmas, Behzod xonni izzat-ikrom bilan tasvirlabdi, deb o‘ylar edi. Lekin Muhammad Solih xonning tagidagi ko‘rpaning rangi qip-qizil qon rangida ekanini sezdi. Xon ko‘rpa ustida emas, go‘yo qon daryosi ustida o‘tirganga o‘xshardi. (Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”). Dehqonqul! Gap musulmonchilikda emas... Dehqonqul! Shuni o‘ng qulog‘ing bilan-da eshitib ol, chap qulog‘ing bilan-da eshitib ol: qizil rang — yaxshilikka olib kelmaydi. Qizil rang — odamni aldaydi.

— Nima, yuvuqsizlar hukumati qizil odam ekanmi?

— Esa-chi, qizil-da. Q p-qizil. Tut shoxiga qistirilgan yalovigacha qip-qizil. Ombor devorlariga ilig‘liq so‘zanalargacha qip-qizil. Qayoqqa qarama— qizil, qizil, qizil...

— Qizil bo‘lsa bo‘lar, bu kishiga nima.

— Dehqonqul! Qizil yomon-da, qizil yomon. Boisi, qizil rang — qon rang! Qon yomon, yomon!

— Zamon tinch bo‘lsa, bo‘pti-da.

— Dehqonqul Qon rangdan yorug‘lik tilama. Qon rangdan ro‘shnolik tilama, Qon rangdan...

(Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”)

Ko‘k rang - tinchlik, mussaffo osmonni tasvirlaydi. Tiniq osmon rangidagi moviy, zangori, umuman olganda, ko‘k tusiga mos bir qancha o‘xshash ranglar ham ko‘k deyiladi. O‘zbek lingvomadaniyatida ko‘k rangning ramziy ma‘nodagi qo‘llanish doirasi ancha keng ekanligini kuzatish mumkin. Jumladan. “yashil, sabza, ko‘k o‘t” ma‘nosida: Qarshimda tebranar ko‘k barglar har on, “maysa, ko‘kat” ma‘nosida: Yomg‘irlar yog‘ib, yerda o‘t-o‘lan ko‘rina boshladi, hayvonlarning og‘zi ko‘kka tegdi, rezavor o‘simlik ma‘nosida: Ko‘k solib qatqlangan mastavaning lazzatli hidi keldi. Jonh so‘zlashuvda ba‘zan kulrang o‘rniga ko‘k rang qollanilganini ko‘rish mumkin: ko‘k bo‘ri, ko‘k kaptar. So‘zlashuv nutqida ko‘k so‘zi jargon sifatida “AQSh dollari” ma‘nosida ham ishlatiladi: Bir pochka ko‘ki bilan qo‘lga tushibdi, ishi chatoq. (Tohir Malik “Shaytanat”). O‘zbek tilida ko‘k so‘zining ma‘nosida yashil, ko‘k va ularning turli ma‘no ottenkalari uyg‘unlashgan



holda ifodaalanaadi: Ustima kiyganim mening yashil ko‘k, // g‘ariblikda bo‘larmikan ko‘nglim to‘q. Odamlar ko‘kini tashlab, vaqtini xushlab, o‘z ishida bolsin, bozorini yurgizsin. Savdo-sotiqni boshlasin. Misollardagi yashil, ko‘k so‘zlari rang ma’nosini saqlagan holda, ularga qo‘shimcha “motam, o‘lim” ma’nosi yuklatilgan. Umuman, nafaqat o‘zbek lingvomadaniyatida, balki aksariyat xalqlarning madaniyatida ko‘k rangga o‘lim va motam ramzi sifatida qaraladi.

Sevgimiz o‘ldimi? — libosingiz ko‘k,

Ko‘nglingiz — begulxan, ko‘zingiz — becho‘g‘.

Bizdan borish yo‘qdir, sizdan — kelish yo‘q,

Kelishsiz dunyoda beg‘am, azizim,

Nega ko‘zlaringiz benam, azizim...(Usmon Azim “Azizim”)

Yashil rang - qator madaniyatlarda yangilanish, bahor, barhayotlikni ifodalaydi. *Yashil rang* - serne‘mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda; uning ramzi ham yashil rangdir. *Yashil rang* - yoshlik. umidni anglatishi bilan birga, yosh, tajribasiz kishilarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Qator islom davlatlarining bayrog‘ida yashil rang musulmonlikni tamsil etadi. Ayrim madaniyatlarda yashil rang baxtsizlikni ifodalaydi. Masalan, ingliz irimlariga ko‘ra, kelinning sepiga biron yashil rangli narsa kirib qolsa, uning, albatta, baxtsizlik keltirishiga ishoniladi. Xitoy va Uzoq Sharq lingvomadaniyatida yashil rang ochko‘zlik, qaysarlik va tamagirlik ramzi hisoblanadi. Dengizdagi yashil bayroq kema halokatidan darak beradi. Yo‘l harakatida yashil rangdan aksariyat mamlakatlar foydalanadi.

Filologiyada rang ramzlarga xos qo‘shimcha xossalar ham mavjud. Bu xosalarni quyidagi ko‘rinishda umumlashtirish mumkin:

1. Rang ramzlar folklorning har bir janrida o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. Ular marosim folklori namunalarida magik-poetik ma’no tashisa, nomarosim folklor janrlarida badiiy-estetik mazmun ifodalaydi.



2. Shaklan rang ramzlar, asosan, juft soʻz yoki birikma shaklida keladi. Til nuqtayi nazaridan bu birlikda rang sifatlash koʻrinishini oladi. Lekin matnda ramziy maʼnoni shakllantiruvchi vazifa bajaradi. Masalan, Oq dev, Sariq dev, oq olma, qizil olma, koʻkkina qush. Ushbu birikmalarda ramzning ramziy maʼnosi rang asosida oydinlashadi [7].

Badiiy asarlarida ramziy birikmalarni umumiy ifodalab keladigan maʼnosiga koʻra quyidagi mavzuiy tiplarga ajratib koʻrsatish mumkin:

1. Mifologik timsollarni ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik obrazlar: oq dev, oq momo, qora dev, koʻk dev, sariq dev, qizil dev, sariq momo, qora momo kabi.
2. Koʻzga koʻrinmaydigan, lekin his etish, anglash mumkin boʻlgan mavhum tushunchalarni ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik birikmalar: qora niyat, baxti qora, oq baxt, yoʻli oq, yoʻli qora, oq niyat, oq fotiha kabi.
3. Vaqt tushunchasini ranglar vositasida ifodalovchi, fasllarga xos belgini aniq tasvirlashga xizmat koʻrsatuvchi ramziy poetik birikmalar: oq tong, qora tong, qizil tong, qora tun, qora qish, koʻklam, koʻm-koʻk bahor va h.k.
4. Timsoliy makonni ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik birikmalar. Bunga oq saroy, oq ayvon, oq uy, qora tepa, qora togʻ, qora yer, qora goʻr, qora uy, qizil uy, zar devor, qizil maydon, koʻk osmon va boshqalarni misol qilib koʻrsatish mumkin.
5. Inson goʻzalligini, maʼshuqaning jozibali koʻrinishini ranglar vositasida ifodalab keluvchi ramziy poetik birikmalar. Bunga qora qosh, oq bilak, qizil yuz, qizil (laʼli, ol) lab, oq siyna, oq toʻsh, qora koʻz, oq sadaf tish, qora xol kabilar misol boʻladi.
6. Insonning yosh xususiyatini, navqiron yoshdaligini yoki keksaligini ranglar vositasida bildiruvchi ramziy poetik timsollar: oq soch, qora soch, oq soqol, qora soqol kabi.
7. Kasallik belgisini ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik birikmalar: oq ochmoq, qora chechak, qora momo, sariq kasal, qizilcha, qoramiq kabi.
8. Timsoliy kiyim-kechakning rang vositasida farqlanishini bildirib kelgan ramziy poetik birikmalar: oq koʻylak, oq doka koʻylak, oq roʻmol, oq kamzul, oq telpak, qora chakmon, qora



telpak, oq qalpoq, qora parangi, qora ko‘ylak, qizil ro‘mol, qizil ko‘ylak, ko‘k ko‘ylak, yashil to‘n, sariq ko‘ylak, sariq ro‘mol va h.k.

9. Narsa-buyumlarning timsoliy obrazini ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik birikmalar: oq chinni piyola, oq qog‘oz, oq qand, qora siyoh, qora tosh, sariq somon, oq tosh kabi timsollarni misol keltirish mumkin.

10. Umuman aytganda, rang tabiatdagi barcha narsalarning tusi va belgisini farqlash imkonini berish barobarida ular bilan bog‘liq, inson ko‘nglida tug‘ilgan turli kayfiyat, his-tuyg‘ularni, ongida uyg‘ongan o‘y-kechinmalarni, hayotida kechgan turfa voqea-hodisalarni ifodash vositasi sifatida ham qo‘llanilib keladi.

Xulosa qilib aytganda, rang ramzlari barqaror shakl va tub mazmunga ega bo‘lib, asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiy mif, turli e‘tiqodiy dunyoqarashlariga bog‘lanadi. Barcha turdagi ranglar ramzi, uning tub ildizi ma‘lum bir xalqning u yoki bu mifologik tasavvuri, e‘tiqodiy qarashlariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – T.: Fan, 1974. – 222 b.;
2. Egamov X. Ertaklarda ranglar simvolikasi // Sovet sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an‘analari aloqalari tarixidan ocherklar. – T.: O‘qituvchi, 1982. – 289 b.
3. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya: O‘quv qo‘llanma. –T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017.
4. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 307 b.
5. Ro‘ziyeva M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida rang simvolikasi. Fil.fan.b.falsafa dok.(PhD). Toshkent-2017. – B.11
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019
7. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – T.: Fan, 2005. – 160 b.



8. O'rayeva D.S. O'zbek xalq lirik qo'shiqlarida parallelizmlarning xarakteri va badiiy-kompozitsion vazifalari. NDA.– T., 1993. – 20-b;
9. Гёте И.В. Избранные сочинения по естествознанию. – М.: Наука, 1957. – С.533;
10. Девицкая Е.Н. Символика красного цвета в русском и немецком сказочном фольклоре. Дисс. канд., филол., наук. – М, 2013.
11. Миронова Л.Н. Цветоведение. – Минск: Высшая школа, 1984. – С.287;
12. Мустаев К.Т. Поэтика цвета и числовых знаков-символов в “Песне о Роланде” и “Алпамыше”. – Самарканд: Зарафшан, 1995. – С. 152.
13. Немыкин В.В. Символика цвета // Вестник Алтайского государственного университета. – Горно-Алтайск, 2010. – №1-2;
14. Тэрнер В.У. Символ и ритуал. – М.: Наука, 1982;
15. Турдимов Ш.Г. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Дисс. канд., филол., наук. – Т., 1987. – С.184.